

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№5 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-5>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna O‘ZBEK TILI AUDIOKORPUSI UCHUN PRAATNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI.....	5
2. Kuchkorov Khoshimjon Khasanzoda SOME CONSIDERATIONS ON THE UZBEK TRANSLATION OF THE WORK OF THE ALCHEMIST (ON THE EXAMPLE OF THE TRANSLATION OF AKHMAD OTABOY).....	11
3. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o‘g‘li SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	18
4. Eshboltayev Bobur Jo‘rayevich BOLALAR REKLAMA MATNLARINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	23
5. Qurbonova E‘zoza HUQUQSHUNOSLIKKA DOIR TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARDA POLIFUNKSIONALLIK MASALASI.....	27
6. Abduxamidova Dilafruz Abduxabirovna TILNING TAFAKKURGA TAFAKKURNING TILGA TA‘SIRI.....	33
7. Usmonova Zarina Habibovna THE UNIQUE ASPECTS OF TRANSLATION IN ENGLISH SCIENCE FICTION.....	38
8. Valieva Noiba Abbasxonovna TIL VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI UZVIY BOG‘LIQLIK XX ASR DOLZARB MASALASI SIFATIDA.....	43
9. Dilorom Ikramovna Hakimova “NAFS” KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK TAVSIFI VA TASNIFI.....	49
10. Xasanova Shaxzoda FE‘L FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASI.....	54
11. Ойбек Бектемирович Абдимўминов БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	60
12. Хасанова Феруза Мирзабековна, Аҳмедов Нодирбек Алиевич ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА С КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА.....	67
13. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ СОСТАВА И СТРОЕНИЯ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП.....	74
14. Saidvaliyev Farrukh Saidakramovich, Subkhanova Aziza Khabibulla kizi ROLE OF ANTIDEPRESSANTS IN REDUCING THE FREQUENCY AND DURATION OF MIGRAIN HEADACHES.....	80
15. Ишанкулова Нилуфар Ташкентовна HEMIS TILI FEЬЛЛАРИНИНГ АКЦИОНАЛ ТАСНИФИ.....	85
16. Jabborova Dilafruz Ismatullo kizi USING DIGITAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE FINANCE STUDENTS’ WRITING COMPETENCE.....	91
17. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	94
18. Maftuna Kamarova Umar qizi KOREYS TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASINING O‘RNI.....	99

19. Shoxida Ulugova Shoxruxovna LISONIY OBRAZ YARATISHDA DISKURSNING KOGNITIV-SEMANTIK VAZIFASI.....	104
20. Рашидова Камила Ахмаджонова ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	109
21. Тошбекова Дилором Исмоиловна, Халимова Нодира Бахронкуловна РУССКАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ И КУЛЬТУРНЫЙ КОНТЕКСТ: АНАЛИЗ УСТОЙЧИВЫХ ВЫРАЖЕНИЙ, ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРК, ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЕ, РАЗВИТИЕ И РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	116
22. Bakhronova Dilrabo Keldiyorovna, Umirova Dilnoza PRAGMATIC FEATURES OF PHRASES IN IAN MCEWAN’S NOVELS.....	120
23. Ikramova Kamola Shuhratovna THE IMPORTANCE OF MYTHOLOGIES, ARCHETYPES, AND MYTHIC UNITS IN THE CREATION OF A FEMALE IMAGE IN NOVELS “PRIDE AND PREJUDICE” BY JANE AUSTEN AND “O’TGAN KUNLAR” BY ABDULLAH QODIRIY.....	124
24. Buranova Madina Uktamovna, Ruziyeva Umida Abryukul kizi SEMANTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS OF ANTHROPOCENTRIC IDIOMS IN CONTEMPORARY ENGLISH LITERATURE.....	129
25. Ergashova Baxora Sayfillo qizi ITALYAN XALQ ERTAKLARINING TARIXIY TARAQQIYOTI.....	136
26. Muhtarova Nigina THE USE OF AUTHENTIC VIDEO MATERIALS TO IMPROVE LANGUAGE LEARNING THROUGH COMMUNICATIVE TEACHING.....	141
27. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O’RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	151
28. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o’g’li SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	157
29. Рашидова Камила Ахмаджонова ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	162
30. Ikromova Nigina Oybekovna THE EFFECT OF COGNITIVE LOAD ON THE TRANSLATOR: THE ROLE OF PSYCHOLINGUISTIC PROCESSES IN TEXT TRANSLATION.....	169
31. Эргашева Дилноза Тохировна АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА.....	175
32. Nasiba Azizova THE CONCEPT OF LINGUISTIC PERSONALITY IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI.....	180




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Qurbonova E'zoza

Guliston davlat universiteti doktoranti

HUQUQSHUNOSLIKKA DOIR TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARDA POLIFUNKSIONALLIK MASALASI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14799637>**ANNOTATSIYA**

Maqolada yurisprudensiyaga oid terminologik birliklarning mazmuniy xususiyatlari tadqiq etilgan. Yuridik terminologiya va terminosistemani tartiblashda semantik xususiyatning ahamiyati ochib berilgan. Terminlarning ma'no munosabatiga ko'ra farqlanishi, yuridik terminologiya jihatidan ushbu masalalarga yondashuv tahlil etilgan. Qolaversa, terminlarda omonimlik va polifunksionallik masalalariga doir nazariy xulosa shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: huquqshunoslik, terminosistema, semantika, polifunksionallik, maxsus leksika

Kurbanova Ezoza

Doctoral student of Gulistan State University

SEMANTIC PROPERTIES OF TERMS IN JURISPRUDENCE AND THE ISSUE OF POLYFUNCTIONALITY IN THEM**ABSTRACT**

The article studies the substantive properties of terminological units in jurisprudence. The importance of semantic properties in the classification of legal terminology and terminological systems is revealed. The differentiation of terms according to their semantic relationship and the approach to these issues in terms of legal terminology are analyzed. In addition, a theoretical conclusion is formulated on the issues of homonymy and polyfunctionality in terms.

Keywords: jurisprudence, terminological system, semantics, polyfunctionality, special lexicon.

Курбанова Эзоза

Докторант Гулистанского государственного университета

СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРМИНОВ В ЮРИСПРУДЕНЦИИ И ПРОБЛЕМА ИХ ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОСТИ**АННОТАЦИЯ**

В статье исследуются содержательные свойства терминологических единиц в юриспруденции. Раскрывается значение семантических свойств в классификации юридической терминологии и терминосистем. Анализируется дифференциация терминов по их смысловой связи и подход к этим вопросам с точки зрения юридической терминологии.

Кроме того, сформулирован теоретический вывод по вопросам омонимии и полифункциональности терминов.

Ключевые слова: юриспруденция, терминосистема, семантика, полифункциональность, специальная лексика.

Terminologik ma'no ilmiy tushunchalar bilan bog'lanadi va shu jihati bilan termin umumtil birliklaridan farqlanadi. "Termin ifodalaydigan tushuncha tabiati umumiste'moldagi leksema ifodalaydigan tushuncha tabiati bilan bir xil emas: umumiy leksika ifoda plani olamni anglashning umumlashma talqinini qamrab olsa, maxsus leksikaning ifoda plani insonning fan va texnikaga doir qarashlari bilan chegaralanadi" [1:40]. Ma'lum bo'ladiki, terminlar olamni maxsus, muayyan soha doirasida anglash natijasida hosil bo'lgan tushunchalarning tilda namoyon bo'lishi hodisasidir. Terminlar ilm-fan va uning sohalariga qay darajada aloqadorligiga ko'ra umumfan va muayyan sohagagina taalluqli bo'lishi mumkin. Masalan, *qiyoslash*, *daraja*, *o'sish*, *pasayish* kabi leksemalar barcha fanlarga taalluqli bo'lsa, *alibi*, *advokat*, *sud* kabi terminlar huquqshunoslik sohasiga aloqadordir.

Terminlarning yana bir muhim semantik o'ziga xosligi shundan iboratki, ular ifodalaydigan tushunchani yakka holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda termin va tushuncha bog'liqligi umumtil birligi va u ifodalaydigan tushunchadan farqlanadi. "Termin vositasida birgina tushunchani tasavvur qilish qiyin. Chunki terminologik tizimdagi yondosh hodisalar ham termin vositasida beixtiyor xayolga keladi. Bu termin o'z semantikasi bilan butun terminologik tizimga bog'liq ekanligini ko'rsatadi" [2:185-186]. Umumtil birliklariga mansub polisemantik leksemalar bosh ma'nosi orqali kengroq birikish imkoniyatiga ega ekanligi, ularning hosila ma'nosida bu imkoniyat nisbatan torayishi kuzatiladi. Chunki "bosh ma'no hosila ma'noga nisbatan emotsional-ekspressivlikdan, subyektiv munosabatlardan xoli bo'ladi. Hosila ma'nolarda esa emotsional-ekspressivlik, subyektiv munosabatlar yaqqol ko'rinib turishi mumkin" [3:46]. Terminlar ham maxsus leksika sifatida chegaralangan birikish imkoniyatiga ega bo'ladi. Muayyan fan sohasiga oid birliklarining asosan monosemantik ekanligi, ularning birikma va gaplardagi qurshovi doirasini toraytiradi. Buni huquqshunoslik terminlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. *Advokat*, *advokatura*, *adliya*, *ajrim*, *ayblanuvchi*, *alibi*, *amnistiya*, *affekt*, *vandalizm*, *vasiqa*, *garov* kabi terminlar birikishi mumkin bo'lgan leksemalar cheklangan miqdorni tashkil etadi. Bu cheklanish huquqiy terminlarning jamiyat a'zolari orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ahamiyatga ega ekanligiga qaramasdan namoyon bo'ladi. Aslida, "tilshunoslikda, xususan, leksikologiyada tilning asosiy lug'aviy birligi bo'lmish leksemalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro bog'liqlikda, xilma-xil ma'noviy aloqadorlikda reallik kasb etishi alohida ta'kidlanadi" [4:19]. Leksemalar orasidagi bunday semantik aloqadorlik terminologik tizimlarning shakllanishida ham asosiy o'rin tutadi. Bundan terminlar semantikasi ular qo'llanadigan soha doirasiga zich bog'liq bo'lishi anglashiladi.

Huquqshunoslikka doir terminlar ular ifodalaydigan tushunchalarning inson hayoti va fan sohasidagi ahamiyatiga ko'ra faqat sohada qo'llanadigan terminlar (mutlaq terminlar) va umumiste'mol leksemasi vazifasida ham qo'llanadigan terminlarga ajraladi. Ta'kidlash lozimki, aksariyat terminlar terminologik ma'noni ifodalash uchungina hosil qilinadi yoki o'zlashtiriladi. Masalan, *jinoiy-protsessual*, *kassatsiya*, *legitimatsiya*, *neytralitet*, *sanksiya*, *eksgumatsiya*, *eksterritoriallik* kabi huquqshunoslikka oid terminlar shunday xususiyatga ega. Sanalgan terminlar semantik chegaralangan va huquqshunoslik sohasiga doir matnlardagina qo'llanadi. Ko'rish mumkinki, bunday terminlarning katta qismini o'zlashma qatlam birliklari tashkil etadi. Faqat sohada qo'llanadigan terminlar, tabiiyki, keng jamoatchilik uchun biroz tushunarsiz bo'ladi. Bu borada S.D.Shelovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli bo'ladi: "terminlarning mohiyati shundan iboratki, ular sohaga doir to'liq termin bo'ladimi, umumtil leksikasida ham qo'llanadimi, baribir, barcha uchun ma'lum bo'lmagan (yoki to'liq ma'lum bo'lmagan) ma'lumot tashiydi. Shu sababli ular muayyan aniqlik qo'shuvchi birliklarni (izoh, tushuntirish) talab qiladi" [5:795-799]. Olimning fikrlari ko'proq mutlaq terminlar semantikasiga aloqador bo'lib, shunda ham ularning sof ilmiy matnlarda qo'llanishini qamrab olmaydi. Sof ilmiy nutqdagi matnlar soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan bo'ladi, shu sababli bunday matnlarda terminlarni izohlashga hojat bo'lmaydi. Shunday bo'lsa-da,

terminlarning maxsus ma'noga ega bo'lishi haqidagi fikrlarda olim haq ekanligini qayd etish lozim. "Semema borliqqa bo'lgan munosabatga ko'ra mantiqan ikki tip semaga ajratiladi: denotativ sema, konnotativ sema. Denotativ sema sememaning bevosita denotatni ifoda etuvchi uzvdir. U hamma vaqt tushunchaga teng keladi" [6:6]. Iqtibosdan faqat termin vazifasida qo'llanuvchi leksemalar sememasi denotativ semadangina iborat bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin. Konnotativ sema sifatida aksariyat hollarda semema tarkibidagi hodisaga bo'lgan shaxsiy munosabatni, emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi ma'no bo'lagi sifatida qaraladi. Ba'zi manbalarda konnotativ sema uslubiy mansublikni ham ifodalashi qayd etiladi [3:40]. Monosemantik terminlarda konnotativ sema sifatida faqat ilmiy uslubiy mansublik belgisigina ifodalanadi xolos. Umuman olganda, faqat terminologik ma'noda qo'llanadigan leksemalarda subyektiv munosabat yoki emotsional-ekspressivlik kabilar ifodalanmaydi. Bu inson ijtimoiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquqshunoslik terminlariga ham taalluqli, albatta. Masalan, *eksgumatsiya* termini ifodalaydigan ma'no, aslida, insonda salbiy taassurot qoldiradi. O'TILda *eksgumatsiya* leksemasi uchun quyidagi lug'at maqolasi keltirilgan:

"**EKSGUMATSIYA** [eks.. + humus – tuproq, yer] *tib. huq.* Sud-tibbiy, kriminalistik ekspertiza, patologik-anatomik tekshirish maqsadida murdani ko'milgan yeridan kovlab olish" [7:19].

"Murdani kovlab olish" jumlasini, ta'lidlanganidek, muloqot ishtirokchilarida salbiy taassurot qoldirsa-da, *eksgumatsiya* termini tibbiyot va huquqshunoslikka doir termin sifatida hech qanday qo'shimcha ma'no tashimaydi. Xuddi shu kabi "qamoqqa olish", "ozodlikdan mahrum qilish" kabi birikma shaklidagi huquqshunoslik sohasiga doir terminlar ham inson ijtimoiy faoliyati, hayotiga ta'siri nuqtayi nazaridan salbiy ta'siri sezilib tursa-da, bu birliklarning faqat huquqshunoslik fani doirasida qo'llanishi ularni subyektiv munosabat, emotsional-ekspressivlik mavjud emasligini ko'rsatadi. Umuman, umumtil birligi bo'lgan leksema ko'p ma'noga, ya'ni qo'shimcha ma'noga ega bo'ladi, ammo terminlar semantikasida bunday xususiyat kuzatilmaydi. Termin umumtil leksikasi birliklaridan ma'nosining aniqligi, qo'shimcha ma'nolardan xoliligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga umumtil leksikasiga mansub birliklarning muayyan fan tarmog'ida qo'llanib maxsuslashuvi, iste'mol doirasi chegaralanishi natijasida hosil bo'lgan terminlar ham terminosistemada salmoqli qismni tashkil etadi. Bunday terminlar huquqshunoslik sohasida ham faol qo'llanadi. Masalan, *guvoh, tuhmat, qo'rqitish, o'g'irlik, bezorilik, jazo, huquq, meros, merosxo'r, nizo, mol-mulk, shikoyat, jarima, omonat, hadya, da'vo* kabi leksemalar umumtil birligi sifatida ham keng qo'llanadi. Masalan, *bezorilik* leksemasining "ko'pchilikning tinchligini buzish, odamlarni bezdiruvchi xatti-harakat" [8:436] ma'nosi umumiste'mol birligi sifatida faol qo'llanadi. *Ichkilik, bezorilik, buzilish, odobsizlik – hammasi bekorchilikdan chiqadi (A.Muxtor)*. Lug'at maqolasining izoh qismini dalillash uchun keltirilgan ushbu illyustrativ misolda ham *bezorilik* leksemasining umumtil birligi sifatidagi ma'nosi ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin. Leksemaning "shaxsning jamoat tartibini qo'pol ravishda buzish va jamiyatga oshkora hurmatsizlik ko'rsatishdan iborat xatti-harakati" [8:436] shaklidagi terminologik ma'nosida maxsuslashuv hodisasi yaqqol namoyon bo'lgan. Chunki izohda qo'llangan *shaxs, xatti-harakat, jamoat tartibi, qo'pol ravishda buzish* kabi so'z va jumlar, shuningdek, izohning *huq. pometasi* bilab berilishi ham fikrimizni dalillaydi. Anglashiladiki, *bezorilik* leksemasining umumtil birligi sifatida qo'llanadigan ma'nosi taraqqiyoti natijasida uning terminologik ma'nosi hosil bo'lgan. Tabiiyki, leksemaning terminologik ma'nosi izohini dalillash uchun lug'at maqolasiga kiritilgan illyustativ misollar ham huquqshunoslik sohasiga doir bo'ladi (*Ichkilik tufayli bezorilik ro'y beradi, jinoyat sodir bo'ladi. Gazetadan*). Bu terminologik tizimni hosil qiluvchi birliklarning qo'llanish doirasi va birikuvchanlik imkoniyatlari chegaralanganligi bilan bevosita bog'liq.

Terminlar aniq ma'noni ifodalaydi va nominativ vazifa bajaradi. Bu terminlar qanday shakldan iborat bo'lishidan qat'i nazar birgina tushunchani ifodalashini anglatadi. Nominativ vazifa bajarish, ya'ni birgina tushuncha ifodalash birikma shaklidagi terminlarga ham taaaluqli. Masalan, *jazoni ijro etish muassasasi, jinoiy javobgarlikka tortish, xo'jalik sudi* kabi birikmali terminlar shaklan birikma bo'lsa-da, mazmunan bir tushunchani anglatishga xizmat qiladi. Umumtil birliklari orasida bunday holat kamdan-kam hollarda uchraydi. Birikmali terminlar bir nominativ butunlik ekanligi bilan

umumtil birliklariga mansub iboralarga yaqin turadi. Chunki iboralar ham birdan ortiq leksik birlikdan tashkil topadi va ular ham nominativ birlik sifatida leksik tizimdan o‘rin oladi. Ammo iboralarni hosil qiluvchi leksik birliklar umumiy ustama ko‘chma ma‘no ifodalaydi. Boshqacha aytganda, iboralarni hosil qiluvchi leksik birliklar o‘z mustaqil atash ma‘nosini saqlab qolmaydi. Ammo birikmali terminlarda bu jarayon biroz boshqacha kechadi. Birikmali terminlarni hosil qiluvchi leksik birliklar o‘z lug‘aviy ma‘nosini saqlaydi va yaxlit nominativ birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ular ifodalaydigan tushunchalarda aks etadi. Yuqorida sanalgan birikma shaklidagi terminlarda ham shunday holat namoyon bo‘lgan. *Jazoni ijro etish muassasasi* deganda, makon-joy bilan bog‘liq birgina tushunha xayolga keladi. Shunday bo‘lsa-da, birikmali terminni hosil qiluvchi leksemalarni o‘z ma‘nosini yo‘qotgan, deb bo‘lmaydi. “Fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy hayotdagi jiddiy o‘zgarishlar va bu o‘zgarishlarni tilda ifoda etish zarurati tufayli yangidan-yangi terminlar vujudga kelmoqda. Har bir sohada uchraydigan bunday terminlarni ilmiy tahlil qilib borish, ularni tartibga solish terminologiyaning asosiy vazifasidir” [9:12]. Terminlarni tartibga solish jarayoni birikmali terminlar va ularning semantik xususiyatlarini tahlil qilish, leksik tizimdagi o‘rnini belgilash jarayonini ham qamrab oladi. Terminlarning nominativ birlik sifatida qaralishi ularning monosemantikligi bilan belgilanadi. Shu tufayli birikma shaklidagi terminlarning ma‘nosi bir tushunchaga teng keladi. Terminlarning monosemantikligi, so‘z yoki birikma shaklida bo‘lishi mumkinligi borasida Sh.Ko‘chimovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli bo‘ladi: “termin kasbiy ma‘no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar va ular o‘rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtayi nazaridan bilish hamda o‘zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so‘z yoxud birikmadir” [10:76]. Keltirilgan ta‘rifdan terminlar so‘z va birikma shaklidagi maxsus leksik birliklar ekanligi ma‘lum bo‘ladi.

Shu o‘rinda terminlarning umumadabiy qatlamdan tashqarida bo‘lmasligini, balki uning bir qismi hisoblanadi. Shunchaki termin muayyan sohaga doir aniq narsa, hodisa, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomini ifodalovchi leksik birliklardir. Terminlar ommabop matnlarda qo‘llanar ekan ularning ma‘nosini aniqlashtirish, auditoriyaga moslashtirish va tushunarligini ta‘minlash uchun ba‘zan izohga zarurat tug‘iladi. Bunday izoh ommabop matnda qo‘llangan terminlar mazmunini ochib beradi. Ko‘rinadiki, terminlar ommabop matnlarda qo‘llanganda ham sohaviy xoslanganligini, fan sohasiga daxldorlik xususiyatini yo‘qotmaydi. Shu bilan birga termin umumtil birliklari bilan umumiy jihatlarga ham ega bo‘ladi. Huquqshunoslikka oid terminlar ham ommabop matnlarda qo‘llanishi, shuningdek, umumtil birligi vazifasida kelishi mumkin. Yana bir guruh huquqshunoslik terminlari boshqa sohalarda ham faol qo‘llanishi mumkin. Shunday terminlar sirasiga *mulk, vakil, taqdimnoma, talabnoma, kredit, isbotlash, gipoteza, demokratiya, oila, nikoh, topshiriq, operatsiya* kabilarini kiritish mumkin. Sanalgan leksemalardan *mulk, kredit* kabilar iqtisodiyot, *demokratiya, vakil* kabilar siyosatshunoslik, *oila, nikoh* kabilar jamiyatshunoslik, *operatsiya* leksemasi tibbiyotga doir termin vazifasini ham bajarishi mumkin. *Topshiriq, taqdimnoma, talabnoma, isbotlash* kabi leksemalar esa turli sohalarda termin sifatida qayd etiladi. Bunday terminlarning semantik xususiyatlari u mansub sohalar ko‘zgisida tahlil qilinishi maqsadga muvofiq. Masalan, *oila* leksemasiga huquqshunoslikka doir maxsus lug‘atda quyidagicha izoh berilgan:

“Oila – bu er-xotin, ota-onalar, farzandlar, farzandlikka olingan shaxslarning o‘zaro hurmat, g‘amxo‘rlik, hamjihatlik asosida jamoa bo‘lib yashovchi shaxslar ittifoqidir” [11:345].

Lug‘at maqolasida huquqshunoslik sohasiga daxldorlik xususiyati qabartirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Xuddi shu leksema uchun izohli lug‘atda tayyorlangan maqolada oila leksemasining umumiy ma‘noviy xususiyatlari yoritilgan: “Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmuyi; xonadon” [12:452]. Shuningdek, izohli lug‘atda oila leksemasining biologiya sohasiga oid semasiga ham to‘xtalib o‘tilgan: “O‘simliklar va hayvonlar sistematikasida tuzilish jihatidan bir-biriga o‘xshash, kelib chiqishi jihatidan ham o‘zaro yaqin bir necha urug‘ni o‘z ichiga olgan guruh” [12:452]. Bir nechta sohaga daxldor terminlar semantikasidagi o‘ziga xosliklarni belgilashda ularning terminosistemadagi o‘rnini hisobga olish lozim bo‘ladi. Jumladan, tahlil qilganimiz *oila* leksemasi huquqshunoslikka oid maxsus lug‘atlarga va terminologik tizimga oilani hosil qiluvchi shaxslarning o‘zaro va jamiyatdagi maqomi

asoslanadigan terminologik semasi vositasida kiritiladi. Huquqshunoslik terminlar tizimi, masalan, leksemaning hayvonlar va o'simliklarning bir-biriga o'xshash guruhlari majmuyini ifodalovchi semasiga nisbatan befarq. Ammo leksema aynan shu semasi vositasida biologiya terminlari tizimiga kiradi. Izohli lug'atlarning umumiy lug'atlar sirasiga kirishi termin hisoblanadigan leksemaning har bir sohaga doir ma'nosi, ya'ni sememasi unda berilavermasligini asoslaydi. *Oila* leksemasining huquqshunoslikka oid ekanligini ifodalovchi ma'nosining keltirilmaganligini shu orqali dalillash mumkin. Bunday semantik jihatlar va lug'atlarda berilish xususiyatlarni bir nechta sohaga taalluqli bo'lgan yuqorida sanalgan terminlarning barchasida ko'rishimiz mumkin.

“O'zbek tilida bir termin turli fan sohasida qo'llanishi yoki bir so'z umumiste'mol qatlamida ham, terminosistemada ham uchrashi ko'p kuzatiladi. Bir xil terminlarning turli sohalarda ishlatilishi, ularning semantik strukturasi ayrim sohaviy qurilishga oidlikni bildiruvchi ba'zi semalar bilangina farqlanishi uning polifunksionallik belgisiga ega ekanligini bildiradi” [13:62]. Bunda birlashtiruvchi semalar farqlovchi semalardan ko'p bo'lishi tabiiy holdir. Terminlarda polifunksionallikning namoyon bo'lishi, aslida, tilning tejamkorlik talabi natijasidir. Kam so'z, ibora yordamida ko'p tushuncha ifodalash til imkoniyatlarini kengaytiradi, undan foydalanishni qulaylashtiradi. Umuman, huquqshunoslik termini sifatida baholanadigan leksemalarni turli sohalarga doir matnlarda turli vazifalarda qo'llanishini tahlil qilish ularning semantik xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tilni muloqot, ma'lumot uzatish, shuningdek, his-tuyg'ularga ta'sir qilish vositasi sifatida inson faoliyatining barcha sohalarida tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslikning asosiy vazifalaridandir. “Tilning kommunikativ konsepsiyasini qurishda terminlarning sohaviy ma'lumot tashuvchisi sifatidagi rolini o'rganishga bo'lgan talab yuqori. Shu sababli turli sohalarga doir matnlarda terminlarning semantik xususiyatlarini, ularning vazifalarini tekshirishga, faqlovchi va birlashtiruvchi semalarini aniqlashga qaratilgan ishlar muhim ahamiyatga ega” [14:24].

Xulosa qilib aytganda, huquqshunoslik termini sifatida baholanadigan leksemalarni boshqa sohalarda leksikasi, shuningdek, umumiste'mol leksikasi ko'zgasida tahlil qilish ularning semantikasidagi yangi qirralarning ochilishiga yordam beradi. Masalan, *mulk* leksemasining qanday o'rinlarda huquqshunoslik, qanday o'rinlarda iqtisodiyotga oid termin ekanligi va yana qanday o'rinlarda umumiste'mol leksik birligi sifatida qaralishi lozimligi leksema mavjud semema va semalar taqqosi amalga oshirilishi natijasida aniqlanadi. Polifunksionallik hodisasi tilshunoslar tomonidan turli aspektda baholanadi. Ammo polifunksionallik (ayniqsa, bu hodisaning terminlarda namoyon bo'lishi) polisemantiklik va omonimlik orasidagi hodisa sifatida baholanishi uning mohiyatini qamrab oladi, nazarimizda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Суперанская А.В. Общая терминология: вопросы теории. – Москва: Наука, 1989. – 246 с.
2. Литовченко В.И. Семантические особенности термина // Вестник Сибирского государственного аэрокосмического университета имени академик М.Ф.Решетнева. №3. 2006. – С.185-186.
3. Ҳакимова М. Семасиология. – Тошкент: “Ҳамидов Н.Х. матбаа корхонаси, 2008. – 68 б.
4. Фуломова Г. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 2005. – 127 б.
5. Шелов С.Д. Ещё раз об определении понятия «термин» // Вестник Нижегородского университета. 2010. №4(2). – С.795-799.
6. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент: Университет, 2000.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildlik, 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – 1038 b.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – 894 b.

9. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: ЎзМЭ, 2017. – 384 б.
10. Кўчимов Ш. Дипломатик тил асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006. – 76 б.
11. Мухитдинов Р. ва бошқ. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. – Тошкент: Адолат, 2009. – 704 б.
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik, 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 844 б.
13. Валиев Т. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2017. – 134 б.
14. Глинская Н.П. Юридическая терминология в разных функциональных стилях английской речи: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2002. – 24 с.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000